



Volume 3, Issue 3(16), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	<i>5-9</i>
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	<i>10-14</i>
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	<i>15-19</i>
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	<i>20-23</i>
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	<i>24-27</i>
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	<i>28-31</i>
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	<i>32-34</i>
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	<i>35-38</i>
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	<i>39-41</i>
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	<i>42-46</i>
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	<i>47-51</i>
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	<i>52-55</i>
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	<i>56-59</i>
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	<i>60-64</i>
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	<i>65-69</i>
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	<i>70-73</i>
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	<i>74-78</i>

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermon</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишида талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришида муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AQLIY MEHNAT VA TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Umarov Rahim Tojiyevich, Yusupov Kirmon Yasinovich
JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası
o’qituvchilari, Jizzax sh., O’zbekiston
e-mail: umarovr@jdpu

Annotatsiya: Maqolada sharq mutafakirlaridan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi bir qator qomusiy olimlarning bolani aqliy mehnat va kasb-hunarga o’rgatish bo’yicha qarashlari to’g’risida qisqacha to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Sharq mutafakirlari, aqliy mehnat, kasb-hunar, qomusiy olimlar, axloqiy, estetik va jismoniy, pedagogik.

Аннотация: В статье кратко рассматриваются взгляды ряда ученых-энциклопедистов, таких как Аль-Хоразми, Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни и Абу Али Ибн Сина, в статье об обучении ребенка умственному труду и профессии.

Ключевые слова: восточные мыслители, умственный труд, профессия, ученые-энциклопедисты, нравственные, эстетические и физические, педагогические.

Movarounnaxr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma’naviy ko’tarilish, Sharq Renessansi - uyg’onish davrining boshlanishiga olib keldi. Butun Sharq bilan bir qatorda, Movarounnaxrda ham ilm-fan va ma’rifat sohasida o’z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo’lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi.

Ushbu maqolada asosan sharq mutafakirlaridan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi bir qator qomusiy olimlarning bolaga aqliy mehnat va kasb-hunarga o’rgatish bo’yicha qarashlari to’g’risida qisqacha to’xtalib o’tilgan.

Mutafakkirlarning o’z ishlarida o’qitish va ta’lim-tarbiyaga e’tibori natijasida ta’limiy-axloqiy masalalarga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o’qitishning uslubiy masalalariga ayniqsa e’tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uning kamoloti bilan bog’liq muammo asosiy o’rin egallaydi. Ta’limiy - axloqiy asarlarda bir tomondan inson aqli mehnayi, uning quvvati, ilm-fanni egallashi, xush xulq bo’lishi ifodalansa, ikkinchi tomondan bu ifodalar ta’limiy-axloqiy asarlarda o’zining badiiy ifodasini topadi. Mutafakkirlar ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamolati baxt saodatga erishish uchun sharoit yaratish degan

g‘oyani ilgari surish bilan bog‘lab talqin etadilar. Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida ta’limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e’tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida kata ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, Sharq o‘yg‘onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta’lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlar haqida o‘lmas ta’limoti bilan nom qoldirgan, tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Demak, o‘yg‘onish davri inson kamoloti muammolari ikki yo‘nalishda:

- 1.Qomusiy olimlar ijodiy merosida komil insonni tarbiyalash muammosi.
- 2.Sof ta’limiy axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolari yoritilganini ko‘ramiz. Quyida biz qomusiy olimlarning ta’lim tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari, ma’naviy, axloqiy qarashlari haqida to‘xtalamiz.

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.U birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Al-Xorazmiy Evropa va sharqda falakiyot va matematika soxasida yangi davr ochdi. Hindlarning o‘nlik raqamlariXorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi. Xorazmiyning falakiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan er xaritasi ham sharq va g‘arb olimlari uchun tekshirish, kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi.Xullas, al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta’lim metodlari, ilm-fanga qo‘shgan hissasi bilan insonni aqliy kamolga etkazishda, ta’lim-tarbiyada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan buyuk allomadir.

Al Forobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini etib kelgan xolos.Forobiy asarlari mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo‘linadi. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo‘limi tarbiya masalasiga bag‘ishlangan ettinchi qismdir. U ta’lim - tarbiyaga oid,«Baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri»,«Fazilatli xulqlar», «Shaharni o‘rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangandir.

Forobiy birinchi bo‘lib ta’lim va tarbiyaga ta’rif bergan olimdir.

- 1.Ta’lim - so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi.

- 2.Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya’ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi, deydi.

- 3.Har kimki ilm, hikmatdan desa, uni yoshligidan boshlasin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, hiyonat, makr va

hiylalardan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi.

5. Ma’lumki, inson hech qachon tug‘ilganda yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo‘ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo‘ladi.

1. Fikriy fazilat

2. Xulqiy

Fikriy fazilat - aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat - intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o‘z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir. Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta’lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalash da muhim rol o‘inaydi.

Al Beruniy hammasi bo‘lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o‘z asarlarini

o‘sha davr an‘anasiga ko‘ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti xaqida o‘z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog‘liq bo‘lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma’rifatida deb biladi.

Shuning uchun u yoshlarni ilm-ma’rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, xayrihoh, bo‘lishni, najotsiz odamga qo‘l cho‘zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo‘yish, yolg‘on gapirish kabi sifatlarga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi. Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo‘ladi.

Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, «insonga er yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim» - deydi. Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o‘z-o‘zini anglab etishiga ta’sir etadi. Mutafakkir inson kamolotida aqliy mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi.

Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e’tibor beradi va hayrihoh bo‘lishga chaqiradi. Shu bilan birga og‘ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida ishlovchilar, dexqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag‘batlantirib turish kerak deydi. Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o‘rgatish kerak deydi. Beruniy inson kamolotida 3narsamuxim rolo‘ynaydi deydi.

1.Irsiyat.

2.Muhit.

3.Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O‘quvchiga bilim berishda u:

-o‘quvchini zeriktirmaslik;

-bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;

-uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etishga e’tibor berish kerakligini o‘qtiradi.

Ilm toliblariga qalbni yomon ilatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko‘zlikdan, shon-shuxratdan saqlanishi zarurligini o‘qtiradi. Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o‘z zamonasi uchun emas, hozirgi davrta’lim-tarbiyasini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga egadir.

Abu Ali Ibn Sino fanning turli sohasiga oid 450 dan ortiq asar yaratadi. Lekin bizgacha 250 ga yaqini etib kelgan bo‘lib, ulardan 50 dan ortiq qo‘l yozmalari O‘zbekiston fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelmoqda.

Ibn Sino asarlarida bolani hali ona qornidaligidayoq tarbiya qilish kerak degan g‘oyani uchratamiz. “Bola olti yoshga kirganidayoq uni tarbiyachi va muallimga topshirish lozim, Ta’lim ishlari ohista borishi kerak: bolani darhol kitobga bog‘lab qo‘ymaslik kerak”, deydi u. Shundan so‘ng Ibn Sino bolalar bilan o‘tkaziladigan mashqlarning me’yori ular kuchi etadigan darajada bo‘lmog‘i kerak, deb o‘qtiradi.

Ibn Sino bundan ming yil muqaddam bola tarbiyasi, ta’limi jamoaviy (kollektiv) tarzda bo‘lishi kerak, deb uqtirgan, shuni targ‘ib etgan. Faqat mana shunday jamoaviy tarbiyagina yoshlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do‘st qiladi, ularni fe’l-atvorini shakllantiradi, degan fikrni olg‘a suradi.”Bolani atvorini takomillashtirishga muttasil e’tibor berish, tarbiyasini ma’lum yo‘nalishda olib

borish, bolaning istagi va intilayotgan narsasi muhayyo bo‘lishi, uning huzurida tushunmaydigan hech narsaga yo‘l qo‘yish mumkin emas”ligini doimo eslatadi.

Ibn Sinoga ko‘ra tarbiyadan ikki yoqlama maqsad ko‘zlanadi: avvalo bola qalbi yoshligidan faqat ezgu, sharofatli ishlar, narsalar ta’sirida rivojlansin. Ikkinchidan, mana shu ruhiy taraqqiyot jarayoni uning jismoniy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsin. Agar u g‘azab tug‘yonini ko‘rsa-qalbi hayajonlanadi, g‘ussa uni hafagazak qilib qo‘yadi, yalqovlik hayotiy kuchini qirqadi, fe’lini bo‘shatib-lanj tabiatli qiladi. Demak, bolaning ma’naviy hamda jismoniy holati uning tarbiyasiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlarining biz ko‘rib chiqqan vakillari ning asarlarida ham aqliy mehnatga, ilmu-hunarga muhabbat va ijodkorlik g‘oyalari yuksak mahorat bilan ifodalanadi. Insonni yoshlik chog‘idanoq aqliy mehnatga va biron-bir kasb-hunarga o‘rgatishga katta e’tibor qaratiladi. Bu esa bugungi kun yoshlarini, ayniqsa o‘quvchi yoshlarni aqliy mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va biror-bir kasbni puxta egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharq allomalari tarbiya xususida, Fan va turmush, № 11, 1984 yil 16-18 betlar .
2. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida Toshkent, O‘qituvchi, 1993y., 144b.
3. Shomuhamedov Sh. Xazinalar jilosi, Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot san’at nashiryoti, 1981y.
4. Umarov R. T., Azimova M., A. O‘quvchilarning aqliy mehnati va uni tashkil etish. Образование, наука и инновационные идеи в мире международные научно-образовательное электронный журнал, выпуск 6, 2023г. 46-49 С.